

## SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIGA TAHLIL

*Qulmatov Umidjon Panjiyevich*

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti “Yurisprudensiya”  
(faoliyat turlari bo`yicha) ta`lim yo`nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning hikoyalari haqida fikr yuritilgan. Jumladan yozuvchining "Xorazm, Jonginam" , "Hukumat", "Quyoshku falakda kezib yuribdi", "Yashil Niva...", "Qadimda bo`lgan ekan", "Ot egasi" va juda ko'p adabiyotshunoslarimizning e'tirofiga sazovor bo'lgan "Ot egasi" hikoyalari tahlil qilingan. Qolaversa yozuvchining hikoyachilikdagi mahorati haqida ham gapirilgan.

**Kalit so`z:** otarchi, ashulachi, Karvich devorlar, karbich, nasini o`ylaysan, hukumat, savxoz, afg'on shamoli, yashil niva, ot egasi

Shukur Xolmirzayev XX asr milliy hikoyachiligimizning fenomen hodisasidir. Fenomen tushunchasiga „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da,, kamdan-kam, g‘ayrioddiy hodisa, fakt, his-tuyg‘u tajribasi bilan paykallanadigan hodisani anglatuvchi falsafiy tushuncha” deb ta’rif berilgan. Adib shaxsi, ijodi va hatto turmush tarsi ham mutlaqo o‘ziga xos bo‘lganini uni yaqindan bilganlar ko‘p ta’kidlashgan. Milliy adabiyotimizning yigirmanchi asr boshlaridan toki bizning kunlargacha bo‘lgan davri, ya’ni oxirgi yuz yillikda hikoya janri tadqiq etiladigan bo‘lsa, Shukur Xolmirzayev yaratgan hikoyanavislik maktabi birinchilardan bo‘lib e’tirof etiladi. Mazkur janrda salaflaridan ilgari ketgan ijodkor o‘zbek hikoyachiligini har jihatdan takomiliga yetkazgan haqiqiy usta edi. Shukur Xolmirzayev o‘ziga xos uslubi ikkita omilga ko‘ra shakllangan. Birinchidan, til xususiyatiga ko‘ra, ikkinchidan, xalq dostonlari, ertak-u rivoyatlar, maqol-matallarga tayangan individuallik.

### “XORAZM, JONGINAM” hikoyasi

Adibning ushbu hikoyasi shoir Qadamboyga bag‘ishlangan. Unchalik mashhur shoir bo‘lmaganligi sababli biz u haqidagi ma'lumotlarga ega emasmiz. Ammo hikoya shoir haqida emas u bir insonning o‘z yurtiga qanchalik bog‘lanib qolganligi, vatanga bo‘lgan yuksak muhabbati haqida. Asarning bosh qahramoni oddiyagina to‘ylardagi otarchi, ashulachi. U hikoyani o‘z tilidan bayon qiladi. Asl kelib chiqishi Xorazmlik bo‘lgan bu inson otasi vafotiga qadar yurt sog‘inchi, ona yurt mehrini his qila olmaydi. Ko‘plab viloyatlar va hatto xizmat safarlari bilan qo‘shni davlatlarga ham borib turadi. Va ancha yillar u o‘z Dunyosida gunohlari, qayg‘u alamlari, shodliklari va kayfu safosi bilan darbadar kezadi. Bilib bilmay ko‘plab gunoh ishlar qiladi. Kunlari shu tariqa o‘taveradi. Ammo uning hayolini band qilgan bir o‘y hech tinchlik bermasdi. U ham bo‘lsa Xorazmdagi eski uyni sotish va Toshkentdan boshqa hovli olish. Yolg‘iz otasiga shu fikrini aytganida esa otasi unga "Sen rostan ham buzilibsan" deya aytadi. O‘z

yurtiga shunchalik sadoqatli bu inson haqiqiy Xorazmlik bir siymo sifatida tasvirlangan. Uning egniga chopon, boshiga cho‘girma ( Xorazmning milliy bosh kiyimi) kiyib tong shahardan Xorazm ko‘chalarida kezishi huddi shu muhitga singib ketayotganday sokin chayqalib yurishlari bu yurt uning uchun nihoyatda qadrli ekanligining isboti. Shukur Xolmirzayev bu cholning yurtiga muhabbatini so‘zlar bilan emas balki xatti harakatlar bilan ko‘rsatishga harakat qiladi: Hozir ham ko‘z oldimda turibdi: men u kishini ko‘rgani borgan vaqtlarimda goho tong saharda uydan topolmay qolaman. Ko‘chaga chiqsam, po‘stin egnida, boshida cho‘girma, kimsa siz, baland koshonalar orasida gangib, bir kuyga quloq solgan kabi yurgan bo‘ladi. G‘alati manzarada: hech kim yo‘q ko‘cha. Karvich devorlar baland. Ular o‘sha qadim gumbazlar ko‘rinib turadi. O‘tmish, o‘tmishning o‘zi... Shular orasida birov aylanib yursa! Tag‘in u odam Gangib garangsib yursa! Tomosha qilib emas yo‘q. Nima desam ekan, otam bunday ko‘chalarida qandaydir mana shu manzara bilan uyg‘unlashib ketardi: uning uzviy bir bo‘lagiga aylanardi." Ammo o‘g‘il otaning tamoman aksi. Egnida kostyum shim bo‘ynida galstuk...

Qahramonning o‘zi ham tashqi ko‘rinishidan Xorazmlikka o‘xshamasligini tan oladi. Bu yerda xuddi sayyohdekman deydi. Ha u nafaqat tashqi ko‘rinishi bilan balki ichki dunyosi ham Xorazmdan ancha uzoqlashgan edi. Har holda unga shunday tuyiladi lekin otasining vafotidan, Xorazmdagi uyni sotib Toshkentga qaytganidan so‘ng undagi yolg‘izlik hissi ancha kuchayadi. U endi Xorazm bilan o‘zini hech narsa bog‘lab turmaganligi na otasi na qarddon uyi borligini anglab yetadi. Va qalbidagi bu vatan sog‘inchini boshqa hech bir tuyg‘u to‘ldira olmasligini tushunadi va Xorazmga qaytish uchun mashina sotib oladi. Taqdir taqazosini qarangki mashina puli bilan hovlisini sotgan pul bir xil edi (yigirma uch ming). U asar oxirida shunday o‘y suradi:

Lekin men tug‘ilgan yurtimni qaytadan kashf etdim: u tap taqir cho‘l, sahro bo‘lib qolgandayam —mening tuprog‘im ekan. O‘liblar ketmaymanmi o‘sha yerda! Xorazm, jonginam.

Bu manglayi qora o‘g‘ling tag‘in bag‘ringga borayotir... Bu sayoq farzanding dunyoning ko‘p o‘yinlarini tushunmaydi: o‘yladi, o‘yladi. Kuchi shunga yetdi, xolos. Ha har bir inson o‘zi uchun yaxshi sharoitlarga ega boshqa bir makonga ketishni istasa ham boringki ketsa ham uning ichidagi vatanga bo‘lgan muhabbat hech qachon tark etmaydi. Bunga tarixda ham ko‘p misollar mavjud. Masalan, buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga shoh bo‘ladi Lekin shunda ham vatanga bo‘lgan sog‘inchi bir soniyaga bo‘lsa ham so‘nmaydi, mangu qalbida yashaydi.

Hikoyadagi ba'zi o‘rinlardagi haqiqiy Xorazmni gavdalantirish uchun sheva so‘zlardan ham foydalanilgan. Masalan, otaning "aka", g‘ishtning "karbich" nimasini o‘ylaysan o‘rnida "nasini o‘ylaysan" kabi so‘zlar qo‘llanilgan bu ham hikoyaning yanada ta‘sirchan chiqishiga yordam bergan.

Tahlil soʻngidan bobolarimizdan qolgan bir hikmatli soʻzni yana eslatib oʻtamiz " Oʻzga yurtida shoh boʻlguncha, oʻz yurtida gado boʻl.

### “XUKUMAT” hikoyasi

Ushbu hikoya oʻz umrin sovet hukumati uchun fido qilgan insonlarning ayanchli taqdiri haqida. Hikoya bosh qahramoni Sovet mafkurasiga shu qadar berilganki, oʻz manfaatlari u yoqda tursin hatto uydagi bor yoʻq narsasini ham olib chiqib hokimiyat uchun beradi. Hikoya boshlanishida u oʻzi rais boʻlib ishlagan paytlaridagi bir qozoq kampirning gaplarini esga olib oʻtadi. Boyaqish kampir rais soʻzini ayta olmay meni "oʻkimat opoy", xoʻjayinimni esa "oʻkumat ogʻay" deb chaqirardi deydi. Ammo vaqt oʻtib bosh qahramonning oʻzi ham qarib u kampirning yoshiga yetganida raisni "hukumat bolam " deb chaqiradigan boʻladi. Bu kampirning asar boshida keltirib oʻtilishi bejiz emas, albatta. Chunki ikki bir biridan tubdan farq qiluvchi insonlarning qarib, ishga yaramay qolganidan keyingi taqdiri ayni. Chunki qozoq kampir bir omi inson faqat uy ishlari bilangina shugʻillanuvchi bir ishchi, ammo bosh qahramon bilimli, saviyali HUKUMAT (xalq uchun emas) uchun bor yoʻgidan kechgan bir fidoiy. Ammo asar oxirida ikkisi ham tashlandiq bir inson.

Bosh qahramon timsolida biz butun ong shuuriga sovet tuzumi mafkurasi chuqur kirib borgan bir ODAMni koʻramiz. Chunki bu ayol shu tuzum uchun INSONIYLIK dan chiqqan qancha insonlarni norozi qilgan, yigʻlatgan, qargʻishiga qolgan. Oʻz davrida quloqlashtirish, qoʻshxotinlik, tilla qidirish kabi Sovet tuzumining chirkin ishlariga ham bosh qoʻshgan. Eri ham urushdan keyingi ocharchilik yillarida odamlarning kalamush, sichqon inlaridan kavlab topgan ozgina don dunni ham qoʻsh qoʻllab davlatga topshirgan. Shu oʻrinda tayinli savol tugʻiladi nega hozirda bunday davlat xizmatchilari yoʻq? Chunki Sovet tuzumidagi inson ruhiyati hozir kun odamidan keskin farq qiladi. U paytda sovet mafkurasi shu darajada insonlar ongiga singdirilganki, ular oʻz xohishlari! bilan uyida bor yoʻq narsani davlatga tashigan. Hozirgi kun odamida esa oʻz manfaati va pul oliy qadriyatga aylandi.

Hikoyada afgʻon shamoli voqealarining rivojlanishiga turtki boʻladi. Shamol sababli uyning yagona tovuqxonasi vayrona holatga keladi. Shunda uning kenja oʻgʻli onasiga malomat qiladi, shuncha yil shu hukumat deb yugurdingiz qani hukumatigiz ham sizga yordam bersin deydi. Bu gap kampirning orini qoʻzgʻab yuboradi. Va savxoz raisi Qodirjonning oldiga boradi. Qodirjon oʻziga tanish boʻlgan bir insonning oʻgʻli boʻladi. U shu kungacha bu oilaga qoʻlidan kelgancha yordam berib turadi. Ammo bu safar ularning uyi boshqa savxozga oʻtganligini aytib yangi savxoz direktorining oldiga yuboradi. Ammo bu boshliq Qodirjondan tubdan farq qiladi. Uni kamsitib urishib haydab yuboradi. Va shu yerda kampir anglab yetadiki, aslida davlat ular uchun hech narsa qilib bermayotganligini. Shunda u Qodirjonga "Bizni hukumatimiz sen ekansan, bolam" deydi.

Kechqurun uyiga esa 10 dona katta shiprni olib kelib o‘rnatib kerishadi. Kampir Kenjaboyga maqtanishni istaydi lekin bu shiplar hukumat tomonidan emas balki Qodirjondan yuborilgani uchun jim bo‘ladi.

### **“QUYOSHKU FALAKDA KEZIB YURIBDI” hikoyasi**

Inson zoti juda murakkab, tushunarsiz. Bu borada, ayniqsa, shoir yozuvchilar alohida o‘rin tutadi. Ular har doim o‘z ijodi uchun Yangilik, o‘zgachalik qidiradi. Va ko‘p hollarda oddiy insonlar ilg‘ay olmaydigan go‘zalliklarni qalbdan his qilishadi. Tasavvur olami nihoyatda keng bo‘ladi. Bugungi hikoyamiz qahramoni ham shunday insonlardan. Shoir. Ismi Quدرات.

Avvalo, asar yozilgan vaqtga diqqatimizni qaratadigan bo‘lsak hikoyaga yuklatilgan asosiy g‘oya ancha oydinlashadi. 1992-yil. Mustaqillikka endi erishilgan davr. Shukur Xolmirzayev bu hikoyasida Quدرات obrazi orqali butun boshli o‘zbek xalqining o‘sha davrdagi ichki his tuyg‘ularini haqqoniy ko‘rsatib beradi. Ya‘ni sotsializm qulab, bozor iqtisodiyoti insonlar turmush tarziga kirib kelayotgan davr. Hech kim nima qilishni, qaysi tuzum yaxshi ekanligini aniq bilmaydi. Shoir, Yozuvchilarniku gapirmasa ham bo‘ladi. Ular endi nima yozishni ham nimaga ishonishni ham bilishmaydi. Necha yillardan beri o‘zlari ishonib, qo‘llab quvvatlab kelgan bir tizim yo‘qqa chiqdi, yolg‘onchi bo‘ldi. Hukmron mafkura tugatildi degan gaplar har tarafdin quloqqa chapinyapti. Endi nima bo‘lishi barchaga qiziq. Har tarafda din erkinligi, Islom dini haqida gapirilayotganda, bizning qahramonimiz gangib qoladi. Va bir suhbat orasida ham "bizning til ateislik bilan chiqqan, endi osmondan tushganday birdaniga din haqida yozib keta olmaymizku " deydi.

Asar boshlanishi shoirning gujim tagidagi skameykada o‘tirib hayol surishi bilan boshlanadi. Atrofiga qarasa barcha jonli narsalarning, insonlarning o‘z jufti bor. U esa o‘zini yolg‘iz seza boshlaydi va beixtiyor Mehmonxona boshlig‘ining qishloqqa tushish borasidagi taklifiga rozi bo‘ladi. Ota onasini bezovta qilmaslik uchun pochtaga haydang deydi va u yerda Zumradni uchratadi. Oilasi bilan gaplashib chiqqanda Zumrad uni ham birga olib ketishlarini so‘raydi. Ular birga yo‘lga chiqadi. Va bir joyga kelganda to‘xtab dam oladi. Hikoyaning asl mavzusi ham ana shu ikki insonning suhbatida asosida yuzaga chiqadi. Shoirni qishloqdagi deyarli barcha insonlar taniydi va hurmat qiladi. Ammo ba‘zi insonlar tabiatidagi bozor iqtisodiyotiga o‘tish, shaxsiy mol mulkka erishishga bo‘lgan intilish shoirning ham, xotini ham e‘tiborini tortadi. Ya‘ni insonlar ongida yangi tuzum bilan birga yangi o‘zgarishlar bo‘layotgandek tuyiladi. Sobiq ittifoq davrida xalq orasidagi to‘kin sochinlikdan so‘ng insonlarning och qolishi, hatto puli evaziga ham oddiy non topib yeya olmasligi endi odamlarni ozroq xasislikka tomon yetaklaydi. Albatta, bu zamon taqazosi edi. Hech bir ozodlik osonlik bilan qo‘lga kiritilmaydi. Ozodlikning ham shunday ba‘zi tovonlari bor edi. Shu sababli shoir ham endi qaysi yo‘nalishda ijod qilishni bilmay qoladi. Ichida bir bo‘shliq paydo bo‘ladi va shu sababdan ayoli va qizchasini olib qishloqqa keladi. Bu yerda

ozroq dam olib o‘zining o‘y hayollaridagi chalkashlikni yo‘qotmoqchi bo‘ladi. Va bunga eng katta turtki bo‘lgan narsa Zumrad bilan bo‘lgan suhbat bo‘ladi.

Kichkinaligimdayam shu xarsangni turishi shu edi... Ana tog‘larning ham turishi o‘sha-o‘sha! Hech narsa o‘zgarmagan. Osmon ham. Bulutlar, yomg‘ir... He, nimasini o‘y layman... — U hamon menga qaramay davom etdi: — Sizlarni... kattalarni turmush, undagi to‘polonlar xafa qiladi. Otam ham nuqul: «Endi nima bo‘ladi?» deb o‘y laydi... Shunday paytda men shoir G‘afur G‘ulomning maktabda yod olgan bir she‘rini eslayman:

Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,  
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy...

Ajabo, birodarim, men ham ushbu satrlarni bir necha bor takrorlagan, lekin tasalli topmagan edim: axir, biz falakdagi haligi azon uchib ketayotgan “qora tuynuk” nimaligini ham, Yer kurrasidagi ekologik holatning ham buzilib ketganini bilamiz. Va shu ham ruhimizga ta‘sir etib, oshimizga zahar qo‘shib turadi-da! Bu juvon esa bu narsalarni o‘ylamaydi: u boriga — ko‘rib turganiga inonadi, vassalom. " Ya‘ni tuzumlar kelib ketaveradi, yaxshimi yomonmi baribir o‘tadi. Faqat shoirning sevgani ushbu tog‘lar, archalar, o‘rmon, harsanglar qoladi. Shoirning asl maqsadi biror tuzumni ulug‘lash yoki uni qo‘llab quvvatlash emas, balki tabiatni, insonni kuylashdir. Shoir maqtab yozgan tuzum o‘tadi va shunga yarasha bu she‘r ham insonlar ongidan o‘chib ketadi. Haqiqiy muhabbat kuylangan she‘rlar abadiy qoladi. Zero, "QUYOSHKU FALAKDA KEZIB YURIBDI, UMRIMIZ BOQIYDIR UMRIMIZ BOQIY " ...

### **“QADIMDA BO‘LGAN EKAN” hikoyasi**

Shukur Xolmirzayev hikoyalardagi bir qarashda ko‘zga tashlanadigan eng asosiy narsa bu SODDALIK. Adib asarlari shu qadar xalq hayotiga yaqinki, o‘quvchi shu muhitga tushib qolganday his qiladi o‘zini. Adibning shunday hikoyalardan biri bu "Qadimda bo‘lgan ekan " hikoyasi. Ushbu hikoya bir inson hayoli va hayotidagi ostin ustunlik, jamiki tartibsizlik va o‘z o‘zi bilan kurashlar mukammal tarzda ko‘rsatib berilgan. Adibning yana bir yutug‘i shundaki, uning asarlarida inson bir mukammal shaxs sifatida emas, balki haqiqiy odam kabi o‘z kamchiliklari, yutuqlari, yaxshi va yomonliklari bilan yashaydi. Butun borlig‘i bilan asarda bo‘y ko‘rsatadi. "Qadimda bo‘lgan ekan" hikoyasi ham real bir borliq.

Hikoya bosh qahramoni O‘sar. Oddiy qishloq odami. Uning ruhiyatida bir insonda bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy jihatlar mavjud. Bu xarakter uning momosiga, xotiniga qilayotgan muomalasi va o‘z ichida kechayotgan o‘y hayollarida namoyon bo‘ladi. U xotinini uradi, tinimsiz so‘kadi, juda qo‘pol munosabatda. Lekin ichida unga achinadi ham. Xotini ham hech gapdan qolmaydi. Va bu vaziyatda ham har kim o‘zicha haq. Doimgidek oilaviy mojaro. Lekin bu vaziyatda O‘sar o‘zining xotinidan aqlliroq ekanini isbotlashga harakat qiladi. Norqul nashavanddan eshitgan gaplarini o‘zinikiday qilib gapiradi. Xullas, har bir erkak psixologiyasida bo‘lgani kabi

qay yo‘sinda bo‘lmasin xotinidan ustun bo‘lishga intiladi. Xotini momosiga nisbatan e‘tiborsizroq. Buni asarda keltirilgan birgina jumladan ham bilish mumkin: "Momosi Maqsad beva deraza tagida, shishib ketgan o‘ng oyog‘ini uqalab o‘tirar, oppoq sochlari qo‘qib ketgan ajinadan farqi yo‘q edi.

— Momojon, — dedi O‘sar ayvon labiga asta o‘tirib. — Salomaleykum... Azonda chiqib ketib edim. Uxlayotgan ekansiz. Hozir keldim. Moshina oldim, momo. Eski-yu, eplasa bo‘ladi. Zavgar uch yuz so‘mning

Shilib qoldi, enasini...

Kampir nursiz ko‘zlarini g‘iltillatib va hiyol iljayib, qiziq bir narsani tomosha qilayotgandek qarab turardi. — E Asaljon, — tanimappan... Hayolim joyida emas. Anovi yerda bir xotin ming‘irlagani ming‘irlagan. Kim u o‘zi? O‘sarning ham ko‘ziga yosh keldi. — Momojon, axir u — keliningiz-ku! — dedi. — Sizdi onasiday ko‘radi... — Uvv, men o‘lay, — dedi kampir va qiqirlab kula boshladi. Ko‘rpacha chetida yotgan kir qiyiqni olib boshiga yopdi, sochlarini bostirgan bo‘ldi. "

Bu parchadagi momoning kir ro‘moli va sochlarining to‘zg‘ib ajinaga o‘xshab yotishidan uning ancha qarovsiz qolibdi ketganini anglaymiz. Ammo kelinning ham ahvoli yaxshi emas. Shu vaziyatlar, xotining har kelganida momosini aytib g‘ijinishi O‘sarni holdan toydiradi. Uning miyasida har xil fikrlar aylana boshlaydi. Bir enasini o‘la qolsin desa, zumda bu hayoli uchun Allohga tavba qiladi. Axir kampir ular uchun bu umrini sarflagan. Bir tarafda vijdon azobi, bir tarafda esa xotining qiynalayotgani uni ikki yo‘l orasida arosatda qoldiradi. Shu yerda vijdon va iymon, vijdonsizlik va hayot mashaqqatlaridan o‘zini olib qochish o‘rtasida ayovsiz kurash boshlanadi. Va oxiri O‘sar kampirni shunchaki uydan 1 2 soatga uzoqlashtirishga qaror qiladi. Lekin sal o‘tmay xotini ham bu holatga chiday olmay yo‘lga tushganligi ayolning jasoratidan darak beradi. Yo‘qsa u eridan kaltak yeyishini bilib turib begonaning mashinasiga o‘tirib ularning izidan ketmas edi. Bu ayol o‘zi kasal bo‘lishiga qaramasdan kampirni ko‘ngliga qaraydi, uni qarovsiz qoldirmaslikka harakat qiladi. Lekin inson tabiatida shunday injiqliklar borki, uni deyarli hech kim boshqara olmaydi. Bu hikoyada faqat O‘sarninggina emas balki xotining ruhiyatida ham qarama qarshiliklar ko‘zga tashlanadi. Nima bo‘lganda ham oxir oqibat ular o‘zlaridagi bu nafs xohishlarini yenga oladi. Va haqiqiy insonlardek fikrlay boshlashadi.

Hikoya esa tugallanmaydi. Undan xulosa chiqarish o‘quvchining o‘ziga qoldiriladi. Ammo adib asarni tugallamasdan oldin o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan vaziyatni to‘laqonli ko‘rsatib bera oladi.

### **"OT EGASI" hikoyasi**

Shukur Xolmirzayev asarlarida nafaqat tabiat obrazi balki o‘z davri tuzumi siyosatini ochib bergan hikoyalar ham mavjud. Shunday hikoyalardan biri "Ot egasi". Ushbu asar qahramoni Inodning boshiga taqdir og‘ir sinovlar soladi. Inod bir chekka qishloqda yashovchi oddiy muallim. Uning hayotida unchalik ko‘p qimmatli narsalari

yo‘q. Ya‘ni sanoqli. Inod butun borlig‘i deb uch narsani biladi bular: serdaraxt qishlog‘i, qishloqdagi yagona maktab va qorabayir oti. Ular inodning butun hayotini tashkil qiladi. Uning oilasi: xotini va ikki farzandi yonib ketadi. Shundan so‘ng Inodning ruhiyatini tushkunlik egallaydi. Butun borlig‘i charchaydi. Hayoti mazmuni bo‘lgan qishloqdan ham, maktabdan ham sovib ketadi. Shunda qorabayir otini minib tog‘ga jo‘naydi. Eng tushkun vaziyatda ham u otini tashlab qo‘ymaydi. U bilan ovinadi. Tabiat bilan bo‘lgan yolg‘izlik unga yaxshi ta‘sir qiladi. Yana o‘z holiga qayta boshlaydi. Qishlog‘iga va maktabga bo‘lgan muhabbati qayta tiklanadi. Tabiatning inson ruhiyatiga qanchalar yaxshi ta‘sir qilishi, uni tinchlantirishini shu parchada ko‘ramiz. U ruhan va jisman harchand kuchli bo‘lmasin, g‘am uni eza boshlaydi, qishlog‘u maktabidan ham ko‘ngli sovib boradi. Nochorlikdan qorabayirni minib, toqqa ketadi. Cho‘ponlar ovulida sang‘ib, marhum otasining jang qilgan yerlarini ko‘radi, zumrad qorli cho‘qqilar ostidan o‘tib, yashil o‘tloqlarda tunaydi va o‘zi sezmaganda holda ko‘ngli ko‘tarilib, dardi pasayib, qishloqqa qaytadi. Shundan keyin darsdan bo‘sh kunlarida qorabayirda sayr qilish unga odat bo‘lib qoladi. Oylar o‘tib, yigit qalbidagi yara bitgandek bo‘ladi. Qishlog‘iyu maktabiga bo‘lgan mehri yana jo‘sh uradi. U azalgi ahvoliga qaytganday his etadi o‘zini" Inod hikoyada o‘z ishini biladigan, og‘ir vazmin, odamovi, ochiqko‘ngil inson sifatida gavgdalanadi. Uni xo‘mrangan odamovi bo‘lishiga qaramasdan maktabdagi barcha bolalar yaxshi ko‘radi. Chunki u bo‘sh vaqtda bolalarga ot minishni va boshqa foydali narsalarni o‘rgatadi. Uning birovga hech yomonligi yo‘q tinchgina yashardi. Ammo Egamberdining uning otiga qiziqib qolishi vaziyatni o‘zgartiradi. Uning ochko‘zligi, shu otni olmaguncha tinchimasligi o‘sha paytdagi sovet tuzumining ifodasi sifatida gavgdalanadi.

Bu hikoya yozilgan paytida (1971) hukumatga qarshi biror gap gapirish juda xavfli edi. Shu sababdan Shukur Xolmirzayev o‘sha tuzumning nohaqliklarini Egamberdi obraziga yuklaydi. Bu obraz juda ochko‘z istaganini olmaguncha qo‘ymaydi. O‘z manfaati uchun oddiy o‘qituvchining sigirini oladi, lekin bu ham uning ichidagi otga bo‘lgan ishtiyoqini so‘ndira olmaydi. Buni tushunib yetgandan so‘ng esa Inodga qat‘iy talabni qo‘yadi. Ana shu nuqtada Inodning o‘z gapida qat‘iy turadigan erkak, otasidan qolgan yagona yodgorlikni birovga berib qo‘ymaslik uchun kurashuvchi o‘g‘il sifatida ko‘rinish beradi. U otni otib tashlaydi. Bu qadrdon otni o‘z jigargo‘shalari qabri yoniga ko‘madi. Va qalbida yana o‘sha tushkunlik boshlanadi. Vaqt o‘tib Egamberdining o‘yinini tushunadi. Lekin u paytda Inodning qalbida yana yashash hissi uyg‘ongan edi.

Odam bolasi shunday. Umidlarim so‘ndi, barchasi tamom bo‘ldi degan paytda Allohning inoyati bilan yana yashashga umid uyg‘onadi. Yana qayta yashashni boshlaydi. Xuddiki bu tabiat bilan sodir bo‘ladigan hodisaday. Ya‘ni tabiat ham qahraton qish kelib endi hammasi tugadi degan bir paytda bahor kelgani kabi...

### **"YASHIL NIVA ..." hikoyasi**

Alloh Taolo har insonga har xil ko‘rinish, shakl shamoyil bergan. Faqat tashqi tomondan emas, balki ichki dunyosi ham bir biridan farqlanadi. Insonlarning ruhiyati, xarakteri va hatto tashqi ko‘rinishi ham u yashaydigan hudud, jamiyat bilan ma‘lum miqdorda bog‘liq. Masalan, Amerikada yashaydigan insonlar psixologiyasida 2 xil ajralish mavjud bular oq tanlilar va qora tanlilar. Ularning kelib chiqish tarixi ham ko‘pchiligimizga tanish. Oq tanlilar o‘zlarini ozod, har ishga qodir, hamma yaxshi narsalarga munosib deb bilishadi. Necha asrlar davomida bu ularning qon qoniga singib ketgan. Qora tanlilarga esa har doim qora ishchi, huquqsiz va oq tanlilardan har doim bir pog‘ona past deb qaralgan. Va buni ham ular ma‘lum miqdorda o‘zlariga qabul qilishgan. Bundan kelib chiqadiki, bir xalqning xalq bo‘lib shakllanishida ularning tarixi ham katta ahamiyatga ega. Endi shu vaziyatni o‘zbek( turk) xalqi misolida ham ko‘radigan bo‘lsak, tan olib aytishimiz mumkinki, o‘zbek xalqi juda kamdan kam holatdagina ozod bo‘lib yashagan. Oldiniga Ahamoniylar bosqini, undan so‘ng, Aleksandr Makedonskiy, siyosiy tarqoqliklar, G‘arbiy turk xoqonligi bosqini, VII asrda arablar kirib kelishi va madaniy va iqtisodiy, eng muhimi diniy hayotning keskin o‘zgarishi, Chingizxon, Temuriylar davlat tuzimi, Xonliklarga bo‘linib ketish va yana parokandalik va nihoyat Chor Rossiyasi bosqini xalqimiz hayotini naqadar achinarli ekanligini ko‘rsatib beradi. Tinimsiz xo‘rliklar, qaramlik, genotsitlar o‘zbek xalqi psixologiyasining o‘zgarishiga olib keladi, insonlarda qaramlikka ko‘nikish, xo‘rlikning har qanday shaklidan jim qolish, ayniqsa Sovet davrida chuqur singdirilgan mafkuralar odamlarni siyosatga aralashmaslikka, och qornim tinch qulog‘im qabilida ish tutishga majbur qiladi. Shukur Xolmirzayev asarlarida mana shu ruhiyat ochib beriladi. Adibning "YASHIL NIVA" hikoyasi xuddi ana shu qo‘rqoqlik, qaramlik qon qoniga singib ketgan, kattalarni hurmat qilish niqobi ostida yopilgan laganbardorlikni ochiq tasvirlab bergan. Bu hikoya qahramoni Universitet domlasi. Uning boshqa insitutga borib kelishdagi bir necha kunlik sayohati o‘zbek xalqining necha asrlarda shakllangan xarakterini ochib berish uchun yetarli bo‘lgan. Asar qahramoni o‘z nutqi davomida davlatda bo‘layotgan siyosiy o‘zgarishlar, oddiy insonlarning qiyinchiliklar jon jonidan o‘tib ketganidagina diktatorlarga qarshi chiqayotganligini aytib o‘tadi. Ammo qahramonimizning hayotida unchalik ham bosim bo‘lmaganligi sababli hali ham bosh egib shu tuzumga bo‘ysunish bilan ovora. Hayotini o‘zgartirish, o‘z haq huquqlarini talab qilish bilan deyarli ishi yo‘q. Ya‘ni pichoq borib suyakka qadalmaguncha o‘ziga hech bir "Balo" ni sotib olmoqchi emas. Mavjud tuzum qulab, parokandalikka uchrayotganini ko‘rib tursa ham o‘sha qo‘rqoqligi uni tark etmaydi. O‘zi shoshib turganiga qaramasdan oldidan chiqib qolgan YASHIL NIVAning oldiga chiqib keta olmaydi. Mashina ichidagi "Katta" dan o‘tib ketish o‘limni bo‘yniga olishday tuyiladi unga. Xotinining, bolalarining xarxashalari va hatto o‘z ishi ham ko‘ziga ko‘rinmaydi. Faqat biror hurmatsizlik qilib qo‘ymasa yetar. Bu yerda faqat



domlani ayblash ham xato. Bunga sabab yuqorida ta'kidlab o'tgan tarix, ayniqsa genotsitlar katta rol o'ynagan. Odamlar hech bir erkin nafas olishlariga qo'yib berishmagan. Oxir oqibat qafasga ko'nikkan qush kabi insonlar ham bu narsaga odatlanib, ko'nikib qolgan. Necha yillab qafasda saqlangan qush qafasni ochib qo'yilganda ham uni tark etmasligi qahramonimizning hozirgi holatiga aynan mos tushadigan misol. U ham hech bu odatlarni tark etolmaydi. O'zi istasa ham. Yo'lda DAN xodimining to'xtatib siz "aqli bola " ekansiz deyishi ham bu odamning nafsoniyatiga tegmaydi. Balki unga maqtovday bo'lib tuyiladi. Ammo manzildan qaytayotganda militsionerning o'zgarib qolishi, ya'ni "Katta akaxoniga" hurmat bilan gapirmasligi, uning ishdan bo'shatilganligini aytishi qahramonimizni go'yo "sher"ga aylantiradi. Endi u o'zini koyiy boshlaydi. Shundan ham qo'rqib o'tiribmanmi deb o'zini ayblaydi. Va yana 5 daqiqa o'tmasdan oldidan YASHIL NIVA chiqishi uni yana oldingi holiga qaytaradi. Yana o'sha qo'rqqoqlik. Diktator emasligini bilib yana o'zini kamsitishlar...

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hech bir inson, hech bir xalq qo'rqqoq bo'lib tug'ilmaydi. Atrofdagi muhit, insonlar uni shu holga keltiradi. Faqat haqiqiy kuchli xalq, kuchli insongina bu to'siqlarni yengib o'tib o'zligini saqlab qola oladi. Yuqoridagi tahlil qilib o'tilgan hikoyalari orqali Shukur Xolmirzaev o'zbek hikoyachiligida o'ziga xos maktab barpo etdi.

#### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Shukur Xolmirzayev “Xorazm, Jonginam” hikoyasi.
2. Shukur Xolmirzayev “Hukumat” hikoyasi.
3. Shukur Xolmirzayev “Ot egasi” hikoyasi.
4. Shukur Xolmirzayev “Yashil Niva” hikoyasi.
5. Shukur Xolmirzayev “Qadimda bo'lgan ekan” hikoyasi.
6. Shukur Xolmirzayev “Quyoshku falakda kezib yuribdi” hikoyasi.